



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING QARORI

2026-yil 26-may

VII-30-94-7-0-K/26

Samarqand viloyati

Jomboy tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunining 4 va 9-moddalariga muvofiq Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2026-yil 10-apreldagi yig'ilish bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2026-yil 4-maydagi (03/08-4769-son) ekspertiza xulosasini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq, o'ttizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

- O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2026-yil 4-maydagi (03/08-4769-son) ekspertiza xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- Jomboy tumanidagi aholi punkti nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (I.Jabborov), viloyat Statistika boshqarmasi (Sh.Qudratov), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Xatamov), Jomboy tumani hokimligi (X.Nazarov) mazkur qaror ilovasida ko'rsatilgan aholi punkti nomini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.

Samarqand Viloyati Hokimligi

K/R: 22-22/94

2026-yil 1-iyun

4. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (T.Aripov), viloyat Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (S.Mamatqulov), Jomboy tumani hokimligi (X.Nazarov) o‘zgartirilgan aholi punktiga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Ixtiyarov), viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” MChJ (N.Norbekov) mazkur qarorni “Zarafshon” gazetasida chop etilishini hamda Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasiga va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) mazkur aholi punkti nomini 10 kun muddatda davlat reyestri bazasiga kiritish choralari ko‘rsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Djurakulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**NEGMATOV
SHUHRAT
XUDOYBERDIYEVICH**

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2026-yil 26-maydagi
VII-30-94-7-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Jomboy tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida

T/r	Geografik obyektning joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning o'zgarayotgan nomi	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	Jomboy tumani	Sarichashma-1	Uchtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq